



## XUSHMUOMALALIK KATEGORIYASINING NUTQ STRATEGIYALARI VA KOMMUNIKATIV FUNKTSIYALARI

**Feruza Umurova**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Gulchehra Jumayeva**

*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada xushmuomalalik kategoriyasining muloqotdagi ahamiyati va nazariy asoslari o'rganilib, uning lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Nutq strategiyalari va kommunikativ funksiyalar orqali xushmuomalalik jamiyatda ijtimoiy uyg'unlik, o'zaro hurmat va samimiy munosabatlarni ta'minlash vositasi sifatida yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Xushmuomalalik kategoriyasi, nutq strategiyalari, kommunikativ funksiyalar, feys konsepsiyasi, sotsiolingvistika, pragmatika, ijtimoiy muloqot, til va madaniyat, samimiylilik, hurmat, muloqot usullari.*

Xushmuomalalik kategoriyasi insonlar o'rtasidagi muloqot jarayonining muhim qismini tashkil etib, jamiyatda munosabatlarning samarali va uyg'un bo'lishini ta'minlaydi. Bu kategoriyaga taalluqli bo'lgan nutq strategiyalari va ularning kommunikativ funksiyalari muloqotning mazmuni, maqsadi va kontekstiga bog'liq holda shakllanadi. Nutq strategiyalari xushmuomalalikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'lib, ular orqali o'zaro hurmat, samimiy munosabat va tushunish muhiti yaratiladi. Masalan, murosa qilish, iltimoslar, minnatdorlik bildirish va kechirim so'rash kabi strategik vositalar orqali insonlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash mumkin.

Kommunikativ funksiyalar esa xushmuomalalik kategoriyasining amaliy ifodasi bo'lib, ular muloqotdagi hurmat, ehtirom va hamkorlik kabi qadriyatlarni namoyon etadi. Bunday funksiyalar orqali nafaqat ijtimoiy qoidalarga muvofiq muloqot amalga oshiriladi, balki konfliktlarni oldini olish, umumiy manfaatlar asosida hamkorlik qilish va muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni shakllantirishga erishiladi.

Shuningdek, xushmuomalalikning strategik vositalari madaniy va til xususiyatlariga bog'liq holda turli tillarda turlicha namoyon bo'lishi, uning universal va maxsus jihatlarni o'rganishni talab qiladi. Ushbu bo'limda xushmuomalalik kategoriyasining turli strategiyalari va ularning muloqotdagi amaliy funksiyalari lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. [Карпова Е.В. Стратегии вежливости в современном английском языке. Автореф. дис.... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2002.]

**Xushmuomalalik kategoriyasining nazariy asoslari** bir qator ilmiy yondashuvlar va tadqiqotlar orqali shakllangan bo'lib, ular quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. **“Feys” (hurmat ifodasi) konsepsiyasi** – Kanadalik tilshunos **Erving Goffman** tomonidan kiritilgan bu tushuncha, xushmuomalalikni odamning shaxsiy



hurmati va uning jamiyatdagi pozitsiyasini himoya qilishga bo'lgan ehtiyoji sifatida ko'radi. Goffman bu kategoriya orqali odamlarning o'zaro muloqotlarida yuzaga keladigan "social face" (ijtimoiy yuz) tushunchasini ishlab chiqqan. Xushmuomalalik, uning ta'rificha, ikki tomonlama o'zaro hurmatni ta'minlaydigan til strategiyalarini yaratadi.[Erving Goffman. Interaction Ritual. Essays on face-to face behavior. Garden City. – New York: Doubleday, 1967.– P. 5-10]

**2. Sotsiolinguistik yondashuv** – Xushmuomalalik kategoriyasi ko'pincha ijtimoiy tilshunoslikda, alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar, madaniyatlar o'rtasidagi o'zaro muloqotda o'rganiladi. Bu yondashuvda, tilshunoslar xushmuomalalikning jamiyatda ijtimoiy rol va vaziyatga qarab qanday shakllanishini o'rganadilar. Masalan, yuqori yoki past jamiyat sinfiga mansub odamlar o'rtasidagi xushmuomalalik alohida xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Sotsiolinguistik yondashuvda xushmuomalalik kategoriyasi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlar, shuningdek, jamiyatdagi turli guruhlar va sinflar o'rtasidagi kommunikativ jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu yondashuvda xushmuomalalik jamiyatdagi ijtimoiy rollar va vaziyatga qarab turlicha shakllanishi mumkin. Tilshunoslar ijtimoiy tilshunoslik nuqtai nazaridan xushmuomalalikning jamiyatda qanday ifodalanishini, uning kommunikativ maqsadlari va ijtimoiy kontekstga qarab qanday farqlanishlarini o'rganadilar. Xushmuomalalik kategoriyasi o'zaro muloqotdagi ijtimoiy ierarxiyaga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, yuqori ijtimoiy sinfga mansub odamlar o'rtasidagi xushmuomalalik, rasmiy, ehtiyotkor va ehtiyotkorona bo'lishi mumkin, chunki bu guruhda o'zaro hurmat va muloqotda aniqlikni ta'minlash zarurati yuqori bo'ladi. Aksincha, past sinfga mansub yoki oddiy odamlar o'rtasida xushmuomalalik kamroq rasmiy, norasmiy va samimiy bo'lishi mumkin, chunki ularning o'rtasidagi aloqalar ko'proq yaqinlik va qulaylikni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Xushmuomalalikning ijtimoiy rollarga va sinflarga qarab farqlanishini o'rganishda bir qator olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Masalan, **William Labov** o'zining ijtimoiy tilshunoslikdagi asarlarida ijtimoiy sinfga va tilning shaxsiy va ijtimoiy rollarga asoslangan xushmuomalalikni o'rganish jarayonida tilning jamiyatdagi ahamiyatini ta'kidlagan. Uning tadqiqotlari ko'rsatadiki, tildagi turli xususiyatlar, shu jumladan, xushmuomalalikning namoyon bo'lishi, odamning jamiyatdagi ijtimoiy pozitsiyasi bilan bog'liqdir.

Shuningdek, **Penelope Brown** va **Stephen Levinson** tomonidan ishlab chiqilgan "Face Threatening Acts" (FTA) nazariyasi ham sociolinguistik yondashuvning bir qismidir. Ularning tadqiqotlari xushmuomalalikni nafaqat o'zaro hurmat va ijtimoiy munosabatlarni ta'minlash, balki insonlar o'rtasidagi ehtiyotkorlik va tilni samarali qo'llash zarurati sifatida tushuntiradi. Brown va Levinson xushmuomalalikni "face" (hurmat ifodasi) konsepsiyasiga asoslanib, nutq jarayonidagi rollarni va ijtimoiy ierarxiyani o'rganadilar.[ Brown P. & Levinson S. C. Universals in language usage: Politeness phenomena. In Questions and politeness: Strategies in social interaction. – Cambridge University Press, 1978.– P. 56-311.]



Shunday qilib, sotsiolinguistik yondashuvda xushmuomalalik kategoriyasi ijtimoiy guruhlar va sinflar o'rtasidagi kommunikativ farqlarni o'rganishga imkon beradi. Xushmuomalalikning ijtimoiy kontekstga mos ravishda qanday shakllanishini tushunish, tilshunoslarga tilning ijtimoiy va madaniy jihatlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

**3. Grammatik yondashuvlar** – Bu yondashuvda xushmuomalalik tilning grammatik qurilmalari orqali ifodalanadi, masalan, rasmiy va norasmiy murojaat shakllari, ikkilik va ko'plik shakllarining qo'llanilishi, iltimoslar va tavsiyalarni ifodalashda foydalangan grammatika qoidalari. Xushmuomalalikning bu shakllari insonlarning ijtimoiy munosabatlariga, ular o'rtasidagi ierarxiyaga, shuningdek, ularning aloqalariga mos ravishda o'zgaradi. Grammatik yondashuvda xushmuomalalik, asosan, tilning grammatik qurilmalari orqali ifodalanadi. Bu yondashuvda, xushmuomalalikning asosiy elementlari, rasmiy va norasmiy murojaat shakllari, ikkilik va ko'plik shakllarining qo'llanilishi, iltimoslar va tavsiyalarni ifodalashda foydalangan grammatika qoidalari hisoblanadi. Masalan, ayrim tillarda “siz” (rasmiy murojaat shakli) va “sen” (norasmiy murojaat shakli) kabi farqlanishlar mavjud. Shuningdek, grammatik shakllar, masalan, fe'lning rasmiy yoki norasmiy ko'rsatmalari, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va o'zaro hurmatni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Xushmuomalalikning grammatik shakllari ko'pincha ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ishlatiladi. Odamlar o'rtasidagi ierarxiya, ya'ni yuqori yoki past ijtimoiy maqomga ega bo'lishi, shuningdek, ularning aloqalari tilning grammatik strukturasi orqali aniqlanadi. Misol uchun, ba'zi tillarda “ko'plam” yoki “yordamchi” so'zlar orqali o'zaro hurmat ifodalanadi, yoki rasmiylik va noformal munosabatlarga asoslangan grammatik shakllar farqlanadi.

**Erving Goffman** (1955)ning “Face Work” asarida xushmuomalalikni ijtimoiy hurmatni himoya qilish va tahlil qilishda grammatik shakllarning rolini tushuntiradi. Goffman o'zining “face” (hurmat ifodasi) tushunchasini kiritgan va xushmuomalalikning nutqdagi grammatik belgilarini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Uning fikriga ko'ra, rasmiy va norasmiy nutq shakllari odamlarning ijtimoiy pozitsiyasi va o'zaro muloqotiga mos kelishi kerak.

**Penelope Brown va Stephen Levinson** (1987)ning “Politeness: Some Universals in Language Usage” asarida esa, xushmuomalalikning grammatik aspektlari haqida batafsil tahlil keltirilgan. Ular xushmuomalalikni ikki asosiy kategoriya – “face-threatening acts” (FTA) va “face-saving acts” (FSA) orqali tushuntiradilar. Brown va Levinson o'zlarining nazariyasi asosida, nutqdagi grammatik shakllar (masalan, rasmiy va norasmiy fe'l shakllari, qo'llaniladigan so'zlar) ijtimoiy vaziyatlarga qarab farqlanadi va bu ijtimoiy kontekstga mos ravishda o'zgaradi.

**Robin Lakoff** (1973) o'zining “Language and Woman's Place” asarida xushmuomalalikni til va jins o'rtasidagi aloqada ko'rib chiqqan va grammatik shakllarning erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlarga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilgan. U tilning grammatika qoidalarining jamiyatdagi



jinsiy ierarxiya va erkaklar va ayollar o'rtasidagi ijtimoiy farqlarni qanday aks ettirishi haqida hamda ularni o'zgarishlar orqali qanday ko'rsatishini tushuntirgan.

Shunday qilib, xushmuomalalikning grammatik shakllari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, ierarxiya va kommunikativ kontekstga qarab o'zgarib boradi. Tilshunoslar, ayniqsa, Goffman, Brown, Levinson va Lakoff kabi olimlar, xushmuomalalikni grammatik va pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilib, uni kommunikativ strategiyalar va ijtimoiy vaziyatlar bilan bog'liq holda o'rganadilar. Bu ilmiy yondashuvlar, tilning jamiyatdagi ahamiyatini va ijtimoiy o'zgarishlarni tushunishga katta yordam beradi.

**4. Pragmatik yondashuv** – Pragmatikada xushmuomalalik kategoriyasi, ayniqsa, nutqning kommunikativ funktsiyalari orqali o'rganiladi. Xushmuomalalikning pragmatik jihatlari nutqning maqsadlari, vaziyatlar va kontekstga bog'liq holda farqlanadi [Gu Y. Politeness, Pragmatics and Culture. Foreign Language Teaching and Research. 1992. – P. 4-23.; Ide S. Formal expressions and considerate expressions for politeness. Descriptive and applied linguistics. Volume 7. 1974. – P. 121-138]. Bu yondashuvda tilshunoslar, odamlar o'rtasida hurmatni, iliqlikni yoki salbiy xulq-atvorni qanday ifodalashlarini va bu xulq-atvorlarning kommunikativ samaradorligini tahlil qiladilar. Pragmatik yondashuvda, xushmuomalalik ko'proq **kommunikativ funktsiyalar** orqali tahlil qilinadi. Nutqning maqsadi, vaziyat va kontekstga qarab, xushmuomalilik turli shakllarda namoyon bo'ladi. Masalan, odamlari o'rtasidagi muloqotda **hurmat, iliqlik, yordam**, yoki ba'zan **salbiy xulq-atvor** ko'rinishida ifodalangan xushmuomalalik xatti-harakatlari kommunikatsiyaning maqsadiga qarab farqlanadi.

Badiiy matnda xushmuomalalik ifodalanishi til va ijtimoiy xatti-harakatlarning muhim jihatlarni ochib beradi. Birinchi navbatda, xushmuomalalik orqali suhbatdoshlarning yoshi va jinsi aniqlanadi. Bu yosh farqlari kattalarga nisbatan "siz"lash, kichik yoshdagi qahramonlarga nisbatan esa "sen"lash orqali ifodalanishi mumkin. Masalan:

*-Barakalla, qizim, ko'p odobli ekansan.*

*- Keyin tovuqlarni katakdan chiqarib yuboradi, nonushtaga o'tirishganda kattalardan oldin qo'l uzatmaydi.*

*- Taom yeyishdan oldin «Bismillohu rahmonir rahim» deydi.*

*- Barakalla, qizim, ofarin!*

*- Qorni to'yganda «Alhamdulillah, xudoga shukr» deydi.*

*- Yaxshi, davom etaver, qizim, ko'p odobli ekansan. (Xudoyberdi To'xtaboyev "Jannati odamlar")*

Ushbu parchada qahramonlar ismlari, rollari haqida ma'lumot berilmagan, ammo matn orqali bildirilgan fikr bobo va nabirasi tengi qizning odob-axloqini tan olishi va uni "Barakalla, qizim, ofarin!", "Yaxshi, davom etaver, qizim, ko'p odobli ekansan." kabi xushmuomalalik so'zlar bilan rag'batlantiradi. Bu so'zlar xushmuomalalikning eng muhim qismi hisoblangan iliq munosabat va maqto'vni aks ettiradi. Muloqot egalarining



yosh xususiyati haqida ma'lumot beradi. Chunki *barakalla, ofarin, odobli ekansan* maqtovlari yoshi katta kishilar nutqida ishlatiladi. O'zbek nutq madaniyati suhbatdoshni "sanlash" ham yoshi ulug' kishilar nutqida uchraydi.

Shu bilan birga, jinsiy xususiyatlar ham xushmuomalalikda ahamiyatga ega bo'lib, masalan, erkak va ayollar o'rtasidagi suhbatlarda ishlatiladigan iboralarning ohangi va mazmunidagi farqlar buni ko'rsatadi.

— *Qanaqa pul bo'lardi? Qog'oz pul-da!* — dedi pochталon. — *Naxt o'n besh so'm! O'g'lingiz yuboribdi.*

— *O'g'lingiz yuboribdi? Voy, o'g'limdan aylanay!* — *Shahodat xola sevinib ketdi, bolalar esidan chiqdi, shang'illab gapira boshladi.* — *Voy, bolaginam-a! Pul yuborib nima qilarkan! Xat-pat ham bormi? (O'lmas Umarbekov "Sovg'a")*

"O'g'limdan aylanay!", "Voy, bolaginam-a!" kabi jumlar nafaqat xushmuomalalik, samimiylik va shukronalikni ifodalaydi, shu bilan birga faqat ayol jinsidagi nutq egasiga xos birliklar hisoblanadi. Yozuvchi tomonidan "shang'illab gapira boshladi" tasvirini berilishi ayollarga xos ohangni o'quvchi tassavurida shakllantirish maqsad qilingan va nutq vaziyatiga xos holatni namoyon qilgan. O'zbek jamiyatida ayollar, ayniqsa, onalar uchun bu kabi hissiy ifodalar odatiy va ijtimoiy maqbul bo'lib, ularning ijtimoiy rolini namoyon etadi.

Ikkinchidan, badiiy matn suhbatdoshlarning ijtimoiy maqom va rollarini ko'rsatishda xushmuomalalikni asosiy vosita sifatida qo'llaydi. Ijtimoiy mavqe baland bo'lgan shaxslar bilan suhbatda ko'pincha hurmat ifodalovchi iboralar, rasmiy nutq uslubi va murakkab gaplar ishlatiladi. Pastroq maqomli shaxslar o'rtasida esa bevosita va samimiy muloqot ko'proq kuzatiladi. Shu tariqa, badiiy asar tahlili orqali qahramonlarning ijtimoiy pozitsiyasi aniq ifodalanadi.

— *Otabek mehmonlarni tanchag'a o'tquzib, fothadan so'ng Hasanali bilan so'radi:*

— *Tuzukmisiz, ota?*

— *Xudoga shukur, — dedi Hasanali, boyag'idan biroz yengilladim. Mazmuni is tekkan ekan. — Ba'zi yumushlar buyursam...*

— *Buyuringiz, o'g'lim.*

— *Rahmat, ota, bo'lmasa bizga choy qaynatib bersangizchi. — Xo'b, begim. Hasanali chiqdi. Rahmat, Otabek bilan yana bir qaytib sog'liq so'rashqandan keyin so'radi:*

— *Bu kishi kimingiz bo'ladi, bek aka?*

— *Otabek Rahmatning savoliga javob bermay eshikka qaradi. Hasanalini hujradan uzoqlatib so'ngra javob berdi:*

— *Qulimiz.*

— *Bu so'zdan nima uchundir Homid ajablangan edi.*

— *Qulingiz?*

— *Shundog'. (A.Qodiriy. "O'tkan kunlar")*

O'zbek millatida yoshi ulug' kishilarga yoshi kichik kishilar ish buyurishi hurmatsizlik deb qaraladi, Otabek Hasanali obraziga *Tuzukmisiz, ota?* "Rahmat, ota,



*bo'Imasa bizga choy qaynatib bersangizchi" kabi xushmuomalalik birliklarini keltiradi va suhbatni samimiylik, yaqinlikni ta'minlaydi. Nutq holatida Hasanalining xushmuomalaligi, hurmat va samimiyati nutq egasining ijtimoiy roli bilan belgilangan. Hasanali mehmonlarga xizmat ko'rsatishga tayyor, "Buyuringiz, o'g'lim", "Xo'b, begim" xushmuomalalik birliklari bu uning jamiyatdagi "xizmatkor" sifatida ko'rilgan mavqeyini aks ettiradi va o'zidan yuqori mavqedagi nutq egasiga hurmat, samimiylikni ifodalaydi.*

Uchinchidan, badiiy matnda xushmuomalalik qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar turini ham aniqlash imkonini beradi. Do'stona, samimiy munosabatlarda yumshoq va iltifotli iboralar keng qo'llansa, rasmiy va masofali muloqotda bunday vositalar cheklangan bo'ladi. Shu tariqa, badiiy asarlar orqali muloqotning turli xususiyatlari, masalan, yaqinlik darajasi yoki vaziyatning rasmiyligi aniqlanadi.

*-Ena, o'sha sehrli duolarni siz ham bilasizmi? - deb so'radim.*

*- Yo'q, bolam, bilmayman, - dedi enajonim xo'rsinib.*

*- E-e, bilganingizda menga o'rgatib qo'yadingiz.*

*- O'rgatsam nima qilarding?*

*-Qorlarni, yomg'irlarni chaqirardim, odamlarning duosini olardim...*

*- Toylog'im, azamatim, kel, bir achomlashaylik, - dedi enajonim quchog'ini keng ochib.*

*To'yib achomlashdik. (Xudoyberdi To'xtaboyev "Jannati odamlar")*

Ona bolaning javoblariga "Toylog'im, azamatim, kel, bir achomlashaylik" kabi xushmuomalalik ifodalar bilan mehr-muhabbatini ko'rsatadi. Samimiy, yumshoq iltifotli nutq holatidagi munosabat namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, xushmuomalalik badiiy matnda ijtimoiy va mintaqaviy kelib chiqishni ham ko'rsatishi mumkin. Mintaqaviy xususiyatlar, xususan, dialektal elementlarning mavjudligi yoki yo'qligi orqali aks etadi. Turli hududlarga xos bo'lgan til vositalarining ishlatilishi qahramonlarning kelib chiqishi va nutqiy xatti-harakatlari haqida ma'lumot beradi. Shu jihatdan, badiiy matn lingvistik va madaniy turfa xususiyatlarni chuqur yoritadi.

*Kampir tog'ara boshida turib chaqaloqni ovutmoqchi bo'ldi.*

*- Ninni, ninnigina nevaraginamdan o'rgulay, yig'lamasin-yig'lamasin, mana hozir buvingiz qo'lini artadi, do'ndiqqinam, o'zim bag'riginamga bosaman. (G'afur G'ulom "Yodgor")*

Matnda kampir chaqaloqqa mehribonlik va e'tibor bilan murojaat qiladi. Bu, birinchi navbatda, pozitiv xushmuomalalik strategiyasi hisoblanadi. Kampir chaqaloqning e'tiborini qaratish uchun iliq so'zlardan foydalanadi.

"Ninni, ninnigina" – bu ibora chaqaloqni tinchlantirish va unga mehr ko'rsatish uchun ishlatilgan. Bu murojaat birligida dialektal leksema hisoblanib, ma'nosi jihatdan "chaqaloq" leksemasiga to'g'ri keladi. Demak bu xushmuomalalik murojaati orqali qahramonning qaysi shevada gaplashishi va yashash joyi haqida ma'lumotlarni beradi.



“Nevaraginamdan o‘rgulay” – bu so‘z orqali chaqaloqni juda qadrli ekanligi ta’kidlanmoqda.”Do‘ndiqqinam, o‘zim bag‘riginamga bosaman” – chaqaloqqa iliq, mehribon munosabatni ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xushmuomalalik muloqotning o‘zaro hurmatda, samimiylilikda o‘tayotganligini anglatuvchi kategoriyadir. Badiiy matnda xushmuomalalik qahramonlarning salomlashuv va xayrlashuv bosqichlaridan boshlab, ularning har bir vaziyatlarida namoyon bo‘ladi. Xushmuomalalik orqali adresatga nutqiy ta’sir ko‘rsatish, uning emotsional holatini ijobiy tomonga o‘zgartirish mumkin bo‘ladi. Badiiy asarda xushmuomalalik asosida adresatga nutqiy ta’sir ko‘rsatish nutqiy muloqotda muvaffaqiyatga erishuvga olib kelishi qahramonlar nutqida namoyon bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Карпова Е.В. Стратегии вежливости в современном английском языке. Автореф. дис.... канд. филол. наук. Санкт-Петербург, 2002
2. Erving Goffman. Interaction Ritual. Essays on face-to face behavior. Garden City. – New York: Doubleday, 1967.– P. 5-10
3. Umurova F.P. Sociopragmatic representation of gratitude symbols. ANGLISTICUM: Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. Volume 13 | Issue 3 |. - Tetovo, 2024. –B 46-50.
4. Sodiqova Sh.B. O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi. Monografiya – Toshkent: ToshShI, 2010. – 120 b.
5. Сафаров Ш., Тоирова Г. Нутқнинг социопрагматик таҳлили асослари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашриёти., 2007. – 44 б.
6. Umurova F.P. Xushmuomalalik sotsiopragmatik hodisa sifatida. Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi . Ilmiy axborotnomasi.2023. 4-son .–B. 172-175.(10.00.00. №21)